

op

Vatan yagonadir,  
Vatan bittdir!

www.tongyulduzi.uz

# Tong Yulduzi

2013-yil 11-noyabr  
N:45 (66950)

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092

## IJOB, KASHFIYOT, IZLANISH yoshlarga qanot bag'ishlaydi

Yurtimizda o'tkazilayotgan turli ko'rik-tanlovlar, sport musobaqalari yosh avlodni o'z iqtidor va salohiyatini to'la namoyon etishi uchun keng imkoniyatlar eshigini ochmoqda.

Kuni kecha O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, «Barkamol avlod» Respublika bolalar texnik ijodiyot markazi va yana bir qancha tegishli tashkilotlar hamkorligida «Aviamodeb» to'garagi qatnashchilari o'rtasida o'tkazilgan «Xonada uchuvchi samolyot modellari» Respublika birinchiligi musobaqasi ham ana shunday iste'dodli yoshlarni bir joyga jamladi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Tadbirda yurtimizning barcha viloyatlaridan kelgan bolalar o'zlari yasagan modellari bilan ishtirok etishdi.

(Davomi 5-betda)



Ushbu sonnda:

**HORMANG,  
KUTUBXONACHI  
OPALAR** 2-bet

**MUZEYDA BAYRAM** 5-bet

**QALAMLAR  
SALTANATIDA** 8-bet



Ikkinchi chorakda ham darslarni o'z vaqtida, puxta o'zlashtiring. Zero,

**BARCHA EZGULIKLAR  
BILIM TUFAYLIDIR!**

# KITOB O'QISH SAN'ATI



Har bir kitob o'zga bir dunyo. Kitob o'qish orqali dunyo bo'ylab sayohat qilish mumkin. Buni qalbdan anglagan yoshlar kitobga do'st tutinishadi. Ba'zan kitobxonlik haqida gap ketganda, «bugungi yoshlar kam kitob o'qishyapti», degan fikrlar qulog'imizga chalinadi. Biz bunday mulohazalardan yiroqmiz. Fikrimga qo'shilishni istamaganlar O'zbekiston Milliy kutubxonasidagi kitobxonalarni borib ko'rishsin.



Sh. MUSAKOVA olgan suratlardir

Yaqinda Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasida «Milliy axborot-kutubxona haftaligi» bo'lib o'tdi. Unda maktab o'quvchilari kitob o'qish san'ati bo'yicha treninglarda faol ishtirok etish bilan birga, O'zbekiston Milliy kutubxonasi bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo'ldilar. Shuningdek, o'quvchilar «Rasm orqali o'zingni namoyon et», «Jonli keramika» mavzulari bo'yicha mahorat

maktablarida o'z tasavvurlarini, fikrlash qobiliyatlarini va estetik didlarini yana bir bor sinovdan o'tkazdilar.

O'tkazilgan haftalik har bir ishtirokchida katta taassurot qoldirdi, desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi.

O'z muxbirimiz

## HORMANG, KUTUBXONACHI OPALAR

Ayni obuna mavsumida kutubxonachi opalarga hormang, degimiz keladi. Chunki ularning hozirda zerikishga vaqti yo'q. Negaki, bugun zukko, bilimdon va dono o'quvchilar kutubxonachi opalari ko'magida o'zlari sevgan nashrlarga obuna bo'lish bilan band. Zero, farzandlarimizning ma'naviy olamini yuksaltirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarni ruhida tarbiyalashda, gazeta va jurnallarning o'rni beqiyos.



**Nazokat KAZAKOVA,**  
Sirdaryo viloyati axborot-resurs markazi xodimi:

– Zamon talablariga mos bo'lgan viloyat axborot-resurs markazimiz hamisha farzandlarimiz xizmatida. Markazimiz yetmish mingga yaqin kitob fondiga ega bo'lib, undan ikki mingga

**Donogul MATQURBONOVA,**  
Xorazm viloyati, Urganch shahridagi Ijtimoiy-iqtisodiy kasb-hunar kolleji axborot-resurs markazi bo'lim boshlig'i:

– Bundan bir necha yil avval poytaxtimizda o'tkazilgan ARM seminarida ishtirok etganman. O'shanda angliyalik kutubxonachi Tim Xait bilan suhbatlashganimda, ularda texnika nihoyatda rivojlanganligi va u kutubxonada faoliyatida ham qo'llanilishini, ayniqsa, kitoblarni uchun mo'ljallangan liftlar borligi haqida to'liq inqilab gapirgan edi. Bugun esa angliyalik hamkasbimning aytganidan ham ziyoda, barcha qulayliklarga ega bo'lgan O'zbekiston Milliy kutubxonasini ko'rib turibman.

Bu yerdagi yoshlarni kuzatib, urganchlik o'quvchilarning ham kitobxonligi, gazetxonligi xayolimdan o'tdi. Kollejimizning ARMidan 1600 ga yaqin o'quvchi foydalanadi.

Kitobxon o'quvchilarimiz davriy nashrlarni ham muntazam kuzatib boradilar. Ayniqsa, «Tong yulduzi» gazetasi o'quvchilarimizning eng sevimli nashrlaridan biriga aylangan.



**O'rinjon PARPIYEVA,**  
Toshkent viloyati, Bekobod pedagogika kolleji axborot-resurs markazi rahbari:

– Mana qirq yildirki, kutubxonada sohasida faoliyat yuritmoqdaman. Markazimizdan nafaqat kollejimizdagi 1350 nafar o'quvchi, balki, tumanimizdagi 6-, 7-, 55-maktab o'quvchilari, «Guliston» va «Bo'ston» mahalla aholisi ham birdek foydalanadi. Ular markazimizda kitobdan tashqari bolalar nashrlarini ham sevib mutolaa qilishadi.

Quvonarli, o'quvchilarning ota-onalari, buvi-buvajonlari o'z farzandlari, nabiralari bolalar nashrlariga kelasi yil uchun obuna bo'lishni boshlab yuborishgan. O'z farzandlari ma'naviyati uchun qayg'urayotgan ota-onalarga tashakkur, degim keladi.



SAODAT olgan suratlardir

Poytaxtimizning Yunusobod tumanida joylashgan 150-maktab arab tiliga ixtisoslashtirilgan bo'lib, bu bilim maskanida ayni paytda 702 nafar o'quvchi tahsil oladi. Maktabdagi o'qituvchilar o'quvchilarning kelajakda bilimi, zukko bo'lib voyaga yetishlari uchun tinmay izlanishdalar.

## HAR BIR SINFGA «TONG YULDUZI»

Prezidentimizning «Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori ijrosini ta'minlash maqsadida bilim maskanida talaygina ishlar amalga oshirildi.

– Ingliz tili xonalari talab darajasida jihozlanib, texnik vositalar bilan to'liq ta'minlandi, – deydi maktabning ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari Shahnoza Altinbekova. – Shuningdek, o'quvchilarning huquqiy bilimlarini oshirish maqsadida maktabimizda tez-tez huquqshunoslar bilan uchrashuvlar o'tkazilib turiladi. Bitiruvchi sinflarni kasbga yo'naltirish, hunar o'rgatish maqsadida «Kim bo'lsam ekan?» mavzusidagi tadbir o'quvchilar kelajakda o'zlari tanlagan kasb-korlari haqida ma'lumotlar berishdi. E'tiborlisi, maktabimizda bunday tadbirlar tez-tez o'tkazilib turiladi.



Surat muallifi: Z.NISHONOVA

Sevimli nashrimiz «Tong yulduzi»ga kelsak, bolajonlarimiz bu gazetani qiziqib o'qishadi.

Darvoqe, o'quvchilar 2014-yil uchun mazkur nashrga obuna bo'lishni allaqachon boshlab yuborishgan.

LAYLO

**Mana, qadrli o'quvchilar! Bugun qo'li-qo'lga tegmayotgan kutubxonachi opalaringizning fikr-mulohazalarini o'qingiz. Siz-chi, siz ham kelasi yil uchun «Tong yulduzi»ga obuna bo'ldingizmi? Bu haqida bizga, albatta, yozib yuboring.**

Feruz SOYIBJON qizi



Maktabimizning 6-«A» sinf o'quvchisi Sitora Nafasovaga hamma havas bilan qaraydi.

## SITORAGA O'XSHASAK...

Barchaga birdek namuna bo'layotgan dugonamiz o'zining intiluvchanligi bilan turli ko'rik-tanlovlarda faol ishtirok etib, faxrli o'rinlarni qo'lga kiritib kelmoqda. Biz ham tengdoshimiz kabi ustozlarimizning har bir o'gitiga quloq tutib, tinimsiz o'qib-izlanishimiz lozim. Ana shunda o'ylagan orzu-istaklarimizga erishamiz. Bu borada buyuk bobokalonimiz Yusuf Xos Hojib shunday deydi:

*O'quv qayda bo'lsa, ulug'lik bo'lar,  
Bilim qayda bo'lsa, buyuklik bo'lar.*

Darhaqiqat, inson aql-u idroki tufayli yuksak marralarni zabt etishga qodir. Shunday ekan, biz ham bu yo'lda bor kuch-g'ayratimizni ayamaymiz.

Dilbar ASLONOVA,

Navoiy viloyati, Zarafshon shahridagi 12-maktabning 6-sinf o'quvchisi



## TABIATNI ASRAYLIK!

Mana, oltin kuzning so'nggi oyi ham o'tib bormoqda. Bu faslda daraxtlar sarg'aygan barglarini to'kib, qishki mavsumga tayyorlanadi. Ana shunday xazonrezgi paytida ayrim insonlar to'kilayotgan barglarni yoqib, ona tabiatga jiddiy zarar yetkazayotgani achinarlidir. Yoqilgan xazonlardan chiqayotgan zaharli tutun esa yon-atrofimizdagilar salomatligiga xavf tug'dirmoqda.

Shunday ekan, oltin kuzning ajoyib manzarasini, ona tabiatimizning bor go'zalligini asrab-avaylaylik!

Dildora TOSHQULOVA,  
Jizzax shahridagi 10-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi

## HECH O'YLAB KO'RGANMISIZ?

Tabiatda ko'zga ko'rinmaydigan qanchadan-qancha g'aroyib hodisalar sodir bo'lishini bir tasavvur qilib ko'ring-a? Masalan, barglardagi fotosintez jarayoni yoki mineral moddalarni parchalovchi bakteriyalarni olaylik. Tiriklik manbai bo'lmish suv va uning mo'jizalari haqida esa uzoq gapirish mumkin.

Aslida, bu unsur miya to'qimasining 84 foizi, ko'z gavharining 99 foizi va suyakning 22 foizini tashkil etar ekan. Inson uchun bir yilda o'rtacha 8000 litr suv kerak bo'lsa, bir gektar sholi ekilgan maydonni sug'orish uchun 10 000 metr<sup>3</sup> suv zarur bo'larkan.

Bu ma'lumotlarni o'qigach, oldimizdan oqqan suvni qadrlashga, uni isrof qilishga yo'l qo'ymaslikka harakat qilishimiz darkor.

Umida ABDULAZIZOVA



## SEVIMLI GAZETAMGA OBUNA BO'LDIM

Men bo'sh vaqtlarimda she'r yozishga, kitob va gazeta-jurnallar mutolaa qilishga qiziqaman. Sevimli nashrim «Tong yulduzi»ning har bir sonini maktabimiz kutubxonasidan olib, tengdoshlarimning ijodi bilan muntazam tanishib boraman. Mening ham she'rlarim ushbu nashrdan chop etilishini istab, ta'til kunlari gazeta tahririyatiga borishni ko'nglimga tugib qo'ydim. Bu haqda buvanga aytganimda, ular taklifimni xursandchilik bilan qabul qildilar.

Tahririyatga kelib, ijodkor aka-opalarimdan maqola yozishning sir-asrorlarini yaxshilab o'rganib oldim. Eng quvonarlisi, buvam tahririyatning o'zidayoq, meni ushbu gazetaga bir yilga obuna qilib qo'ydi.

Aziz tengdoshlar, sevimli nashrimiz «Tong yulduzi»ga obuna bo'ldingizmi? Agar obuna bo'lishga ulgurmagani bo'lsangiz, unda shoshiling! Vaqt juda oz qolmoqda.

Hilola KOMILJONOVA,

Poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 265-maktabning 8-«B» sinf o'quvchisi



ZUBAYDA o'lgan surat

## NON - AZIZ NE'MAT

Men poytaxtimizdagi 29-umumta'lim maktabining 5-«V» sinfida tahsil olaman. Yaqinda maktabimizda o'tkazilgan insholar tanlovida «Non - aziz ne'mat» mavzusida yozgan inshoim ustozlarim va sinfdoshlarimga ma'qul bo'ldi. Uni siz ham o'qib ko'ring-chi, balki sizga ham manzur bo'lar.

## RASM CHIZISHGA QIZIQAMAN



Mustahkam oila

Men Jizzax viloyati, Jizzax tumanidagi 16-umumta'lim maktabining 8-sinfida o'qiyman. Bo'sh vaqtlarimda rasm chizishga, boshqotirma va topishmoqlar tuzishga qiziqaman. Tengdoshlarimning turli ijod namunalari bilan

gazeta orqali yaqindan tanishib boraman. Ayniqsa, «Tong yulduzi»ning har bir sonida berilayotgan qiziqarli maqolalarni, hikoyalarni maroq bilan o'qiyman. Tahririyatga chizgan rasmlarimdan birini yuboryapman. Ma'qul kelsa, gazetada chop etasiz, degan umiddaman.

Madina FAYZULLAYEVA

Biz oilamiz bilan shaharda istiqomat qilamiz. Yozgi ta'tilda dam olish uchun buvimlar yashaydigan tog' etagidagi qishloqqa yo'l oldik. U yerning musaffo havosi, go'zal manzaralari meni o'ziga maftun etdi. Ayniqsa, buvijonimning tandirda yopgan issiqqina nonlarini aytmasizmi? Nazarimda, uning xushbo'y hididan yoqimliroq hid yo'qday dunyoda. Keksalarimiz hamisha bizga non, tuz, suv aziz ne'mat ekanligini, ularning qadriga yetib, isrof qilmaslikni tayinlashadi. Buvijonim ham menga non haqida ko'plab ertaklar, rivoyatlar aytib berdilar.

Bir kuni dugonalarim bilan koptok o'ynayverib, qornimiz ochib ketdi. Tezda uydan buvijonim yopgan nonlardan bittasini olib chiqdim-da, dugonalarim bilan to'ygunimizcha yedik. Orrganini esa g'ishtning ustiga qo'yib, o'yinni davom ettirdik. Ertasi kuni uyimizda non tugab qolibdi. Buvijonim mendan do'konga chiqib kelishimni iltimos qildilar. Hali tushlik qilmaganim uchun shu damda do'konga chiqish juda malol keldi.

— Buvijon, bir burdagina non yeb olay, — dedim-da, beixtiyor non turadigan idishga



yuzlandim. Ne ko'z bilan ko'rayki, nonning o'zi tugul ushug'i ham yo'q edi.

— Voy, buvijon, endi nima qilaman, — dedim yig'lagudek bo'lib.

Buvijonimning nimtabassum zohir yuzlaridan qandaydir ma'no ilg'adim. Ko'z oldimga g'isht ustiga qo'yilgan non bo'ladi keldi.

— Ha, bolam-a, non shunday muqaddas ne'mat-ki, uni isrof qilsang, ko'cha-ko'yda tashlab ketsang, ushug'iga ham zor bo'lasan, — dedilar.

Men qilgan ishimdani uyalib ketdim va:

*Yerda ko'rsang non ushug,*

*Terib olgin o'sha choq,*

degan hikmatni o'zimga shior qilib oldim.

Malika AKBAROVA



Kuni kecha poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 259-umumta'lim maktabida «Matbuot kunlari» o'tkazildi. Tadbirida poytaxtimizning Shayxontohur hamda Yunusobod tumanlaridagi umumta'lim maktablari o'qituvchilari va axborot-resurs markazi xodimlari gazeta-jurnallarning ijodkorlari bilan o'zaro muloqotda bo'lib, fikr almashdilar.

# KO'NGIL MA'RIFAT ISTAR



Ta'lim maskaniga kirib kelar ekanmiz, hovlida bizni bir ayol



xushmuomalalik bilan kutib oldi. Billsak, ular nemis tili fani o'qituvchisi, shu maktabning direktori Irina TOKAREVA ekan. Suhbatdan ma'lum bo'ldiki, maktabdagi 23 ta sinfda 699 nafar o'quvchi o'zbek va rus tillarida tahsil olishar ekan. «O'quvchilarimiz «Tong yulduzi» va «Klass!» gazetalarini sevib mutolaa qilishadi, birinchilardan bo'lib

obuna ham bo'lishgan», – deydi ustoz.

Yunusobod tumani xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish bo'limi metodisti Suriyaxon opa HUSNIDDINOVA tadbirida so'zga chiqib, «Matbuot kunlari» bir necha yildan beri an'anaviy tarzda o'tkazilib kelinayotgani, bu kabi ijodiy uchrashuvlar juda katta ahamiyatga ega ekanligini ta'kidladilar.


Shuningdek, tadbirida o'qituvchilarni gazeta va jurnal sahifalarida qanday mavzularning yoritilishi qiziqtiradi, bunda nimalarga ko'proq e'tibor qaratish kerak, chop etilajak maqola va materiallarning mazmun-mundariyasi qanday bo'lmog'i kerakligi haqidagi fikr-mulohazalar o'rtaga

tashlandi. Ijodiy muloqot jarayonida ustozlar turli mavzularda o'zlarini qiziqtirgan savollariga jurnalistlardan atroflicha javoblar olishdi.

Jumladan, Shayxontohur tumanidagi 324-umumta'lim maktabining kutubxonachisi Nasiba opa, gazeta va jurnallar sahifalarida «Unutilmas sanalar» rukni ostida ko'proq maqolalar berib borilsa, maqsadga muvofiq bo'lardi, degan taklifni bildirdi. 313-maktab o'qituvchisi Farog'at opa Sulaymonova esa tahririyat xodimlaridan mumtoz adabiyot bo'yicha maqolalarni ko'paytirishlarini so'radi. Yunusobod tumanidagi 274-maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Mahmuda opa Valiyevani esa ko'proq O'zbekiston xalq yozuvchilari, bolalar shoirlari haqidagi maqolalar qiziqtirishi ma'lum bo'ldi.

Ijodiy muloqot so'ngida yig'ilganlarga viktorina savollari e'lon qilindi. Topqir o'qituvchi va kutubxonachilar esdalik sovg'alari bilan taqdirlanishdi.

Dilorom HOTAMOVA



## RANGLARDAN ILHOM OLIB...

Ko'zlari quvonchdan jorlab turgan bu jajji qizaloqning ismi Adelina Axtamovadir.

Endigina olti yoshni qarshilagan bu qizaloq o'zining tirishqoqligi, ilmga chanqoqligi tufayli poytaxtimizning Mirzo Ulug'bek tumanidagi «Barkamol avlod» bolalar ijodiyoti markazining tasviriy san'at to'garagiga qatnaydi. Bo'sh vaqtlarida ham u rangli qalamlar hamda bo'yoqlardan foydalanib, mustaqil ravishda rasm chizishni yoqtiradi. Bundan

tashqari, barcha tengdoshlari qatori oynayi jahon orqali multfilm tomosha qilish jon-u dili.

Jajji Adelinaning orzulari bir olam. Biz uning orzulari ijobat bo'lishiga tilakdoshmiz.



MANZURA

## 40 TA GAZETAGA OBUNA BO'LAMIZ,

deyishdi TDIU qoshidagi aniq fanlarga ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabi o'quvchilari

«Bugun darsimizni har doimgidek karra jadvalni takrorlashdan boshlaymiz. Qani, bolajonlar, 8x6 nechaga teng bo'ladi?» Ustozning bu savoliga ayrim zukko o'quvchilarning sabri chidamay, go'l ko'tara turib, javobni ham aytib qo'ya qolishdi.

Bunday ilmga chanqoq, intiluvchan bolalar tahsil olayotgan maktab haqida bilgingiz kelayotgandir-a? Unday bo'lsa, quyidagi maqolamizni diqqat bilan o'qib chiqing.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti qoshidagi aniq fanlarga ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabida ayni paytda 1264 nafar o'g'il-qizlar tahsil olishadi. Matematika faniga ixtisoslashtirilgan mazkur bilim maskanida ta'lim olayotgan tengdoshlaringizga barcha sharoitlar muhayyo etilgan. O'quvchilar darsdan bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishlari uchun sport mashg'ulotlari, qolaversa, informatika, matematika, iqtisod, ingliz tili singari fan to'garaklari muntazam faoliyat yuritmoqda.

Matematika murakkab fan bo'lganligi

uchun ham o'qituvchilar darslarni «Klasster», «Aqliy hujum», «Zinama-zina» kabi yangi o'qitish usullaridan foydalangan holda o'tishmoqda.

Ixtisoslashgan mazkur maktabga o'quvchilar 5-sinfdan test sinovlari asosida qabul qilinadi.

Maktabda professor Mirfozil aka Mirzahmedov ham yosh avlodga bilganlarini o'rgatib, matematika

eng mo'jizakor fanlardan biri ekanini uqtiradi. Bu ism bizga tanish-ku, demoqchimisiz? Albatta, ustoz qator sinflarning matematika darsligi muallifidir.

Bu dargohda adabiyotga, ijodga qiziqadigan o'quvchilar ham talaygina ekan. Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Zulfizar opa Aliyeva 5-«E» sinfiga rahbarlik qilish bilan birga, maktab qoshida tashkil etilgan «Yosh qalamkashlar» to'garagini olib boradi.

Shuningdek, maktab kutubxonachisi Shahnoza opa G'aniyeva o'quvchilarning bo'sh vaqtlarida kitob, gazeta-jurnallar bilan oshno tutinishlari uchun bor mahoratlarini ishga soladilar.

– Maktabimizda iqtidorli o'quvchilar juda ko'p, – deydi Shahnoza opa. –

Biz o'quvchilar bilan birga «Tong yulduzi»

gazetasining har bir sonini sevib mutolaa qilamiz.

Bu yil ham mazkur nashrga 40 nafar o'quvchimizni obuna qilishni niyat qilganmiz.

Shahnoza opaning bu gaplaridan so'ng, bilim

dargohida chindan ham iqtidorli, ilmga chanqoq, izlanuvchan o'quvchilar ko'pligiga amin bo'ldik.

Ozoda TURSUNBOYEVA, surat muallifi: Zuhra NISHONOVA



# IƒOD, KASHFIYOT, IZLANISH yoshlarga qanot bag'ishlaydi

(Davomi. Boshi 1-betda)

– Men ilk bor pena-plastdan samolyot yasaganman. Qiziqishlarimni ko'rgan ota-onam meni tumanimizdagi



«Barkamol avlod» bolalar markazining «Aviamodel» to'garigiga olib borishdi. U yerda ustozim Bobur aka Hamidovdan raketa, samolyot modellari yasash sir-asrorlarini o'rgana boshladim. Shu kungacha o'zim yasagan ko'plab modellar bilan turli ko'riktanovlarda muntazam ishtirok etib, g'oliblar safidan o'rin egallab kelmoqdaman. Niyatim – kelajakda yetuk konstruktor bo'lish, – deydi Toshkent viloyati, Olmaliq shahridagi 19-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi Shamsiddin Boboyev.

– Bunday tadbirlarning o'tkazilishi biz kabi yosh avlodning iste'dod va qobiliyatlarimizni yuzaga chiqishiga katta turtki bo'lmoqda. Eng asosiysi, bular orqali tengdoshlarim bilan fikr almashamiz, kuch sinashamiz, do'stlashamiz. Bu esa menga yangidan

yangi modellar yasashimga ko'mak beradi, – deydi Shahboz Bafoyev.

Tadbir ikki kun davom etdi. Dastlabki kuni ishtirokchilar ko'rgazmali model stendlari bo'yicha o'z mahoratlarini sinovdan o'tkazdilar. Aytish mumkinki, hakamlar hay'ati o'quvchilar tomonidan tayyorlangan har bir ishni odilona baholab bordilar.

Tadbir so'ngida barcha ishtirokchilar buxorolik o'quvchilarga havas qilishdi. Kogon shahridagi 1-maktabning 8-sinf o'quvchisi Behruz Bafoyevning yasagan stendi birinchi o'ringa loyiq topilgan bo'lsa, F-1-D yo'nalishi bo'yicha birinchi o'rinni G'ijduvon tumanidagi 57-maktabning 7-sinf o'quvchisi Shohjahon



ZUHRA olgan surat

Rahimov qo'lga kiritdi.

F-1-M yo'nalishi bo'yicha 1-o'rinni G'ijduvon tumanidagi 66-sport maktabi o'quvchisi Shahboz Bafoyev egalladi.

Umumjamoa hisobida Buxoro viloyati yoshlari birinchi, samarqandliklar ikkinchi, andijonlik bolalar esa uchinchi o'ringa sazovor bo'lishdi.

G'oliblar tashkilotchilarning «Faxriy yorliq» va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar.

Nigora ABDUNAZAROVA

## OLTIN YAPROQLAR RAQSI

Kuzning oltin barglarini boshiga ko'targan o'g'il-qizlar sahnani to'ldirishadi. Sentabr, oktabr, noyabr oylarining bolalar ijrosidagi talqini, kuz ne'mati bo'lgan sabzavotlarning sahnadagi mayin tabassumi kuz chiroyiga chiroq qo'shadi. Sahnaga oltin barglar to'kiladi...

Chilonzor tumanidagi 163-maktabda bo'lib o'tgan «Oltin kuz» tadbiri bolajonlarda tabiatga mehr-muhabbat, kuz ne'matlarini qadrlash, bir-biriga o'zaro mehr tuyg'ularini qalblarga muhrladi. Baqlajon, sabzi, karam, sholg'om, piyoz kabi turfa sabzavotlar qiyofasini jonlantirgan yosh aktyorlarga hammaning havasi kelgani rost.

– Yurtimizda hosil bayramlari keng nishonlanayotgan bir pallada bo'lib o'tgan ushbu tadbir har birimizni kuz ne'matlaridan bahramand bo'lishga chorlaydi, – deydi maktab direktori Umida Mannopbekova. – Men bolalarning she'r, qo'shiq, raqs va teatrlashtirilgan sahnalarini ko'rib ich-ichimdan quvonib ketdim.



Maktabda har bir dars va tadbirlar ana shunday yuksak mahorat bilan tashkil etiladi. Shuningdek, birinchi toifali o'qituvchi Svetlana Sodiqova tomonidan o'tkazilgan «Paxta – yurt boyligi» bayram tadbiri ham qiziqarli o'tdi. Bolalarda o'ziga ishonch tuyg'usini orttirish, olgan bilimlarini qalblariga yanada mustahkam muhrlashga qaratilgan bunday kechalar har bir o'quvchiga bir olam taassurot baxsh etayotgani, shubhasiz.

Yurtimizni oltin barglari bilan boyitgan kuzning go'zal qiyofasi bolalarga ham ko'chib o'tgandek, go'yo. Ilm olish yo'lidagi shijoat, hayotbaxshlik va bir butunlik hislari ularga hamroh bo'lajak.

G.MATYOQUBOVA

Charos o'qituvchisi Munavvar opa Samatovaning ta'tilni mazmunli o'tkazish haqidagi topshiriqlarini eshladi-yu, buvisidan O'zbekiston tarixi davlat muzeyiga olib borishni so'radi.

## MUZEYDA BAYRAM



Buni qarangi, Shayxontohur tumanidagi 59-maktabning 3-«D» sinf o'quvchisi Charos Mahmudova bu muzeyda ajoyib bayramning guvohiga aylandi. Muzeyda bayram bo'libdimi, deysizmi? Ha-da, yana qanday deng, sizga yaxshi tanish bo'lgan, har yili maktabingizda ham o'tkaziladigan «Mehrxon» bayrami!

O'zbekiston tarixi davlat muzeyi hamda Respublika xalq ijodiyoti va madaniy-ma'rifiy ishlar ilmiy-metodik markazi tomonidan tashkillashtirilgan mazkur tadbirga yig'ilgan bolajonlarni bir ko'rsangiz edi! Ular Mansur Quryozov rahbarligidagi «Jayhun» xalq qo'g'irchoq

teatrining tomoshalaridan juda quvonishdi. So'ng o'quvchilar muzey qoshida faoliyat yuritayotgan «Mo'jizalar olami» nomli bolalar muzeyiga sayohat qilishdi. Bu yerda ko'rgazmaga qo'yilgan oltin kuz ne'matlarini rangli bo'yoqlar yordamida oq qog'ozga tushirishga harakat qilgan bolalarning sevinchini tasavvur qilayotgan bo'lsangiz kerak-a? Anor mevasining rasmini chizish bilan birga o'z taassurotlarini biz bilan o'rtoqlashgan Davron Rahimjonov tadbirga poytaxtimizdagi 39-maktabdan tashrif buyuribdi:

– Ta'til kunlarimdan birini mazmunli o'tkazganimdan juda xursandman. Bu yerga kelib, nafaqat tadbir ishtirokchisiga aylandim, balki muzeydagi eksponatlar bilan yaqindan tanishdim. Ta'til tugagach, muzeydan olgan taassurotlarim haqida insho yozmoqchiman.

Shayxontohur tumanidagi 567-maktabgacha ta'lim muassasasidan kelgan bolajonlar ona Vatan va «Oltin kuz» haqidagi she'rlari bilan tadbirga o'zgacha fayz kiritishdi. Toshkent shahar, Olmazor tumanidagi 4-Madaniyat uyi qoshidagi «Hilola» folklor-etnografik dastasi ijrosidagi kuy va qo'shiqlar barchani raqsqa chorladi. Biz esa yuzida tabassum porlagan bolajonlarni suratga olar ekanmiz, ularga yanada shodlik ulashish maqsadida har bir o'quvchiga gazetamizdan ilindik.

Siz-chi, aziz o'quvchim, ta'til kunlarini qanday o'tkazdingiz? Axir, ertaga bu haqda o'qituvchingiz va sinfdoshlaringizga so'zlab berishingiz kerak-a?! Istagimiz, har biringizning ta'tildan olgan taassurotlaringiz boy va so'zlashga arzigulik bo'lsin!

Sayyora QODIROVA,  
Suratlar muallifi: Zuhra NISHONOVA

**O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, tanikli yozuvchi, bolalar shoirasi Qutbi Nosirova Siz bolajonlarni juda yaxshi ko'rardi. Garchi, o'zi «Mushtum» jurnalida faoliyat yuritgan bo'lsa-da, sizlar uchun she'r, hikoyalar yozishga, albatta, vaqt topardi. Uning «Oyijon, oyi», «Laylak qor», «Non haqida qissa», «Tinchlik bobo», «O'zgarish bolalari», «Kurtaklar» kabi o'nlab kitoblarini bugungi kun bolalari ham qiziqib o'qishmoqda. Qutbi opa hayot bo'lganlarida bugun 70 yoshga to'lardilar. Adibamiz o'zining ajoyib asarlari bilan uni tanigan, ijodini yaxshi bilgan muxlislari qalbida hamisha barhayot. Quyida shoiraning Siz bolajonlarga atalgan she'ri bilan tanishasiz.**

**Qutbi NOSIROVA, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi**

### ONASINING «O'NG QO'LI»

– Essiz, «o'ng qo'lim»-a,  
«O'ng qo'lim» yo'q-da.  
Yonimda bo'lsa u,  
Ko'nglim ham to'q-da, –  
Oshxonada Robiya aya,  
Deydi o'ziga o'zi.  
Eldorjon hayron bo'lib,  
Jovdirar ikki ko'zi.  
– Nima deysiz, oyi,  
Qo'lingiz-ku joyida.  
– Bolam, buzilgan axir  
Uyimizda qoida –  
Akang edi «o'ng qo'lim»,  
Og'irni etib yengil,  
Saranjom qilsa darrov,  
Ko'rib quvonardi dil.  
Yubormasam bo'larkan,  
Bekor ketdi mehmonga,  
Qani endi kim chopar,  
Uning o'rniga nonga?  
Eldor dedi: – Xafa bo'lmang,  
Yayrayversin ko'nglingiz.  
Yordamlashay men o'zim,  
Men bo'lay «o'ng qo'lingiz».



**BOLALIK**

Beg'ubor bolaligim,  
Xuddi gulga o'xshaydi.  
Tog'lardagi shalola,  
Yo bulbulga o'xshaydi.  
Toshqin suvday oqadi,  
Misli jilg'a, misli soy.  
Bolaligim – poshsholigim,  
Sho'xliklarga behad boy.  
Bolalik – bahor fasli,  
Ardoqlar inson nasli.  
Ezgu orzu-niyatlar,  
Boshlanmasidir, asli.  
Shuning-chun bolaligni,  
Do'stlar, qadrlash kerak.  
Bolalikdan bo'ylasang,  
Yo'ldoshingdir pok tilak.

**Zebiniso RASULOVA,**  
Surxondaryo viloyati, Termiz  
shahridagi 11-umumta'lim  
maktabining 8-sinf o'quvchisi

#### (Davomi. Boshi o'tgan sonda)

Yana darvozabon bo'l emish. Noilo:  
– Yur, o'sha Boybichcha momomning oldiga. Jo'ja ochganini o'zi gapirib beradi.  
Ammo og'zingdan chiqarma, Maymun! – dedim.  
– Chiqarmayman, ketdik...  
Ikkalamiz Boybichcha momomning oldiga bordik.  
Uning boshida 40 ta ro'moldan, jun va xaslardan yasalgan «savati» bor edi.  
To'qson yoshdan oshib, beli sal bukchaygan momojonim



## BOYBICHCHA MAMAM

(Hikoya)

oldimizga dasturxon yozib, yassi tosh ustida pishirilgan, aylanasi barkashdan ham katta tova non, qorin moyi, qo'y qatig'i olib keldi. Issiq nonni maydalab, uni ustiga qorin moyidan qo'shib, changallab ikkalasini rosa pishitdilar-da:

– Buni «yachmin» deyдилar. Bo'kib qolmay, desanglar, anavi qatig'ga botirib yenglar! – dedilar. Biz ochofatlardek ovqatga yopishdik.

Qoshiq tikka turgan qo'y qatig'idan asar ham qolmadi. Uni ustidan tog' bulog'ining muzdek suvidan sipqordik.

– Endi biroz uxlanglar. Har kuni chopacha chopacha eshakning

xalacho'piday qotib ketibsizlar-ku, – deya chiqib ketdilar momom.

Qormimiz to'ygach, uyqu elita boshlaganini momom sezgan edi.

Ikkalamiz «tappa» tashlab, xurrak ota boshladik.

Uyg'onsak, kun botay deb qolibdi.

– Chaqir, tovuq, yo'g'-ey, Boybichcha momongni! – dedi Erg'ozini.

– Aytmasan-a?!

– Aytmayman!

Men momonni

chaqirib keldim. Momom Erg'ozini rosa yalintirdi.

Maymun-maymun-da. Darvozaga yopishgandek momonga ham «yopishib» oldi.

Nihoyat, momom o'nta tuxum olib keldi. U tovuqlarning tuxumi edi. Ularning biriga sariq, biriga qora, biriga qizil chiziqlar tortdi. Boshidagi, «savati»ni olib, uning o'rtasidagi qo'y junini uya qildida, tuxumlarni joylashtirdi. Yana ustidan mayin qo'y junini to'shab, avaylab boshiga kiydi.

– Mana endi yigirma ikki kundan so'ng jo'ja ochaman, – dedi u.

– Nega turli ranglarda chiziq tortdingiz ularga? – deb so'radi Erg'ozini.

– Sariq chiziq sariq-ola, qora chizig'i qora-ola bo'ladi-da jo'jalarimni, – deb kuldilar momom.

– Jo'jalarni tovuqqa o'xshab «qit-qit» deb chaqirasizmi, momojon?!

– Yo'q, inson tilida «Kel-kel, ket-ket», – deyman.

– Eh, ular bolamidi, inson tiliga tushunishsa?

– Inson tilidagi yaxshi gapga o'simliklar, hayvonlar, gullar hatto suvlar ham tushunishadi, bolam! Yaxshi gapga ilon ham inidan chiqib, odamga ta'zim qiladi.

Ikkalang necha kundan buyon arazsan? Yaxshi so'zlashni bilmaysan!

Qushlar ham, bu jo'jalar ham bir-biriga mehribon, bir-biriga yaxshi gapirib, yaxshi javob oladi.

– Qani, o'rningizdan turinglar-chi? Bizlar o'rnimizdan turdik.

– Quchoqlaringizni ochib, bir-biringizni bag'ringizga bosong! Abadiy do'st bo'lamiz, deb so'z bering! Momojonimning aytganlarini bajardik. Ular har ikkimizni peshonamizdan o'pib, duoga qo'l ochdilar... Momojonim boshidagi tuxumlar yigirma ikki kunda jo'jalarga aylanishadi. Ular inoq yashashadi. Biz esa to'qqiz oy ona qornida yotsak ham yig'loqi bo'lib tug'ilamiz.

Erg'ozini kuzatib chiqishda, u yana so'rab qoldi:

– Momong jo'ja ochishni kimdan o'rgangan?

– Uzoq zamonda o'lat kasali tegib, barcha qushlar, tovuq-kurkalar ham

**O'roq SAID,**  
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

qirilib ketgan ekan. Momomning momosi savdogarlardan tuxum sotib olib, boshiga qo'yib, jo'ja ochirib, hammaga bepul tarqatgan ekan. Bepul bergani uchun Boybichcha nomini olgan. Bu momom ham jo'jalarini bepul beradi. Saxiy va mehribon, shuning uchun ularni haligacha Boybichcha, deb atashadi.

– Rostdan ham yaxshi momo ekanlar. Endi men ham futbol o'yiniga boraman. Seni himoya qilaman. Abadiy do'st bo'ldik-a?

Momonga aytgan haligi qo'shig'ingdan qolmadimi?  
– Bor, aytaymi?  
– Bir kecha-kunduz doston qilib aytasang ham ozlik qiladi-ya. Aytaqol-chi, og'ayni!

*Yomg'ir savalar mayin,  
Maysa yashnar kun sayin.  
Men ham endi o'ynayin,  
Buvijonim, bu Navro'z!*

*Qaynar shirin sumalak,  
Tovlanar yoy-kamalak.  
Gulga qo'nmish kapalak,  
Buvijonim, bu Navro'z!..*

– Bundan keyin momojonimizning mehribonligini, ikkimizni yarashtirib qo'yganligini, boshlarida jo'ja ochirib, hammaga bepul tarqatganlarini ham qo'shib yoz!

Men Erg'oziga qo'l uzatdim. U qo'limni qisib, meni momom o'rgatganlaridek bag'riga bosdi. Shu tobda hayot ko'zimga yana ham munavvar, yana ham mazmunli ko'rindi.

Bularning barchasi momojonim xislati edi.

(Tamom)

# PARALIMPIYACHILARIMIZ G'ALABASI

Joriy yilning 26-30 oktabr kunlari Malayziya poytaxti Kuala-Lumpur shahrida o'tkazilgan o'smirlar o'rtasidagi «Paraosiyo o'yinlari - 2013» musobaqalarida O'zbekiston sharafini munosib himoya qilgan sportchilarimiz yurtimizga qaytib kelishdi.

Toshkent Xalqaro aeroportida paralimpiyachilarimiz tantanali kutib olindi. Kuala-Lumpurdagi musobaqalarda iste'dodli yosh sportchi Ilhomjon Rixsiboyev nayza, disk va yadro uloqtirishda raqiblarini ortda qoldirib, uchta oltin medalni qo'lga kiritdi.

Nufuzli musobaqalarda Prezidentimiz va xalqimizning yuksak e'tibori hamda ishonchini doimo his etib turamiz, - deydi Paraosiyo o'yinlari g'olibi I.Rixsiboyev. - Bu bizga Vatanimiz sha'nini ulug'lashda katta kuch va g'ayrat bag'ishlaydi. Kelgusi maqsadim - Braziliyada o'tadigan XV yozgi Paralimpiya o'yinlariga yo'llanmani qo'lga kiritish va unda munosib ishtirok etish.

Paraosiyo o'yinlarining yengil atletika bahslarida jahon chempionati kumush medali sovrindori Doniyor Soliyev uzunlikka sakrashda, Farrux Mirzaqulov 100, 200 va 400 metrga yugurishda ikkinchi o'rinni egalladi.

Suzish musobaqalarida qatnashgan Kirill Pankov ham muxlislar ishonchini oqladi. O'tgan yili Londonda o'tkazilgan XIV yozgi Paralimpiya o'yinlari tarixiga Osiyo rekordchisi sifatida kirgan hamyurtimiz Paraosiyo o'yinlarida ham mahorat ko'rsatdi. 100 metrga chalqancha suzishda belgilangan masofani birinchi bo'lib

bo'sib o'tgan K.Pankov oltin medalni qo'lga kiritib, Osiyo rekordini yangiladi.

Terma jamoamizga yana bir juft oltin medalni dzyudochilar keltirdi.

60 kilogramm vazn toifasida saralash uchrashuvlaridan muvaffaqiyatli o'tgan Shuhrat Bafoyev hal qiluvchi bahsda eronlik Rizo G'ulomiy ustidan sof g'alabaga erishib, shohsupaning eng yuqori pog'onasiga ko'tarildi. Vazni 66 kilogramm bo'lgan dzyudochilar o'rtasidagi finalda Nurbek Berdiyev Janubiy Koreya vakili Li Jun Xuni mag'lubiyatga uchratib, oltin medalga sazovor bo'ldi.

Paraosiyo o'yinlari dasturidan joy olgan pauerlifting musobaqalarida o'z vazn toifasida yuqori natijalarga erishgan sportchilarimizdan Farhod Umrzoqov va Iskandar Tursunboyev bronza medali bilan taqdirlandi.

Osiyo qit'asining 42 davlatidan 2,5 ming nafarga yaqin paralimpiyachi qatnashgan «Paraosiyo o'yinlari - 2013» musobaqalarida O'zbekiston sportchilari bor mahoratini ishga solib, muxlis-u mutaxassislar hurmatini qozondi.

Shoh MUHAMMAD



*Iqtidorli yoshlarimizning xalqaro tanlovtar, nufuzli sport musobaqalaridagi muvaffaqiyatli ishtiroki barchamizni birdek xushnud etadi.*

## SUZUVCHILARIMIZ SHOHSUPADA

Kuni kecha Fransiyaning San-Dizer shahrida suzish bo'yicha yoshlar o'rtasida o'tkazilgan xalqaro turnirda ham O'zbekiston yoshlar terma jamoasi medallar shodasini qo'lga kiritib, yurtdoshlarimizga bir olam quvonch ulashdi.

Aytish mumkinki, Istiqlol yillarida Prezidentimiz rahnamoligida bolalar sportiga qaratilayotgan yuksak e'tibor natijasida nafaqat shahar va tuman markazlarida, balki yurtimizning chekka-chekka hududlarida ham zamonaviy sport inshootlari qad rostlab, yoshlar orasidan ko'plab chempionlar yetishib chiqayotir. Ayniqsa, farzandlarimiz o'rtasida suv sporti turlari tobora ommaviylashib borayotgani quvonarlidir. Bu esa xalqaro musobaqalardagi erishayotgan yutuqlarimizga o'ziga xos zamin yaratmoqda.

San-Dizer shahrida o'tgan xalqaro turnirda terma jamoamiz a'zosi Andrey Tarasenko 50, 100 va 200 metr masofaga erkin usulda suzishda barcha raqiblarini ortda qoldirib, uchta oltin medalni qo'lga kiritdi. Aytish mumkinki, hamyurtimizning har bir chiqishi barchada katta qiziqish uyg'otdi. Shuningdek, batterflay usulida 50 va 100 metrga suzish bo'yicha Temur Latipov bir juft kumush medalga loyiq deb topildi. Brass usulida 50 metrga suzish bo'yicha marraga ikkinchi bo'lib kelgan Abdullaxo'ja Ahrorxo'jayevning ishtiroki ham barchaga manzur bo'ldi.

Vatanimiz sharafini brass usulida suzish bahslarida munosib himoya qilgan yana bir sportchimiz Arsen Aliyev yakunda turli masofalarga suzish bo'yicha uchta bronza medalni qo'lga kiritdi.

**Aziz o'quvchilar! Yuqoridagi maqolada o'qiganingiz kabi bugun yurtimizda ko'plab iqtidor egalari kamol topmoqda. Istagimiz, Siz ham davlatimiz tomonidan yaratib berilayotgan shart-sharoitlardan unumli foydalanib, yurt nomini butun dunyoga tanitayotgan ana shunday iste'dodli tengdoshlaringiz safiga qo'shiling.**

Sa'dullo TURSINOV

## SOG'LOM AVLOD — KELAJAK POYDEVORI



*Bugun yurtimizda farzandlarimizning har jihatdan sog'lom va barkamol bo'lib voyaga yetishini ta'minlash, ular orasida sog'lom turmush tarzini keng targ'ib etish ustuvor vazifalardan biriga aylangan.*

Yoshlarimiz ham bunday e'tiborga javoban sport bilan shug'ullanib, xalqaro maydonlarda ulkan g'alabalarni qo'lga kiritishmoqda.

Bu ezgu sa'y-harakatlarni amalga oshirishda Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasining ham o'z o'rni bor.

Jamg'armaning Xorazm viloyati filiali tomonidan viloyat yoshlarining sport bilan shug'ullanishi uchun qator ibratli ishlar amalga oshirildi. Bu sa'y-harakatlar sabab, xorazmlik yosh sportchilar qo'l to'pi, dzyudo, sport gimnastikasi, badiiy gimnastika, boks, suzish, og'ir atletika kabi sport turlari bo'yicha o'tkazilayotgan respublika va xalqaro musobaqalarda muvaffaqiyatli ishtirok etishmoqda.

Shu yil Farg'ona shahrida sport gimnastikasi bo'yicha o'tkazilgan «Olimpiya umidlari» respublika musobaqasida viloyat terma jamoasi a'zolaridan Aziza Xudoynazarova 1-, Samira Rajabova 2-, Durдона Mahkamova esa 3-o'rinni egalladilar. Shuningdek, poytaxtimizda suzish bo'yicha o'tkazilgan Respublika birinchiligida Ortiq Karimboyev, Aziz Otajonov va Otamurod Otajonovlar ham o'z mahoratlarini namoyish etib, turli yo'nalishlar bo'yicha sovrindorlar safidan joy olishdi.

Yaqinda dzyudo bo'yicha 21 yoshgacha bo'lgan yoshlar o'rtasida bo'lib o'tgan jahon

birinchiligida ham xorazmlik yoshlar yurtimiz sharafini munosib himoya qilib, o'zlariga bildirilgan ishonchni to'la oqlashdi. Jumladan, Gulnora Matniyozova qizlar o'rtasida o'tkazilgan bahslarda kuchli beshlikdan o'rin egallagan bo'lsa, 60 kg. vazn toifasida Diyor O'rozboyev bronza medali sovrindoriga aylandi.

Shuningdek, Iordaniya davlati mezbonlik qilgan boks bo'yicha kattalar o'rtasida o'tgan Osiyo chempionatida

75 kg. vazn toifasida ishtirok etgan Mirzabek Hasanov faxrli 3-o'rinni qo'lga kiritdi.

2004-2013-yillarda viloyatda qurilib foydalanishga topshirilgan sport inshootlari va yangidan bunyod etilgan, qayta rekonstruksiya qilingan umumta'lim maktablarining sport zallari jami 634,9 mln. so'mlik sport anjomlari va jihozlari bilan ta'minlandi. Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi viloyat filialining 2013-yil manzilli dasturiga muvofiq, 12 ta sport inshootining 10 tasi to'liq foydalanishga topshirildi, - deydi jamg'armaning Xorazm viloyati filiali direktori Komiljon Ibraimov.

Bu yo'lda amalga oshirilayotgan ezgu ishlar kelgusida ham keng quloch yozib, yosh sportchilarimiz yuksak marralarni zabt etishiga ishonamiz.

Mahmudjon AZIMOV



Keling, ertak o'qiymiz!

# QALAMLAR SALTANATIDA

Bor ekan-da, yo'q ekan, qadim o'tgan zamonda, baland tog'lar ortidagi keng o'rmonda ajoyib bir saltanat bo'lgan ekan. U yerda jonivorlar emas, juda mehnatkash qalamlar ahil-inoq «kun kechirisharkan». Saltanatda qattiqqo'l Qizil qalam podshoh, Ko'k qalam vazir ekan.

Osuda kunlarning birida saroyga boshi ezilgan, qo'llari singan Qora qalam zo'rg'a sudralib kirib kelibdi:

– O-o, ulug' podshohim, men Bolalar mamlakatidan sizga bir shikoyat bilan keldim.

Podshoh uning ahvolini ko'rib:

– Seni kim bu holga soldi? – deb so'rabdi.

– Ayrim bolalar bizni qattiq xafa qilishyapti. Ular tishlari bilan boshimizni tishlab, sindirishmoqda. Hatto ayrim qalamlar nobud ham bo'lishdi.

Podshoh bu xabarni eshitib, qattiq darg'azab bo'libdi. Saroy tabibi Oq qalamni chaqirtirib, bemorni davolashni buyuribdi. Saroy vazirlarini yig'ib, bo'lgan voqeani ularga bayon qilibdi.

Donolar donosi qanday maslahat beradi? – so'rabdi

podshoh bilimdon Sariq qalamdan.

– Yashil qalam boshchiligida navkar tuzib, Bolalar mamlakatiga yuborish kerak.

– Tartib-intizom noziri bunga nima deydi?

– Sariq qalamning fikriga qo'shilaman, – so'z boshlabdi uzun bo'yli, baquvvat gavdali Yashil qalam. – Bolalar mamlakatiga borib, qalamlarni asrab-avaylash kerakligini ularga tushuntirishimiz kerak.


– Vazir ham o'z fikrini bildirsin-chi, – debdi podshoh Ko'k qalamga qarab.

– Buyuk olampanohim, siz shunday farmon chiqaringki, bolalar qalamlar bilan do'st bo'lishni, ularni ehtiyotlab ishlatishni, qadriga yetishni o'rganishsin.

Podshoh o'ylay-o'ylay bir qarorga kelibdi va ertasi kuni farmon chiqaribdi. Farmonda: «Kimki qalamni tishlab, unga ozor yetkazsa, barcha qalamlarni saltanatimizga chaqirib olamiz. Natijada, bolalar na rasm chizadi, na uni bo'yay oladi. Ular qalamsiz qolishadi», deb yozilgan ekan.

Shu-shu bolajonlar qalamlarga ozor bermay, ular bilan bir umrga do'stlashishibdi.

Shahnoza KARIMOVA



Iqtidorli tengdoshim

## FIRDAVSNING ORZUSI

Firdavs Shomahmudov poytaxtdagi 59-umumta'lim maktabining 5-«V» sinfida a'lo baholarga tahsil olmoqda.

U 5 yoshidan boshlab tasviriy san'at bilan shug'ullanadi. Hozirgi kunda

«Barkamol avlod» Respublika bolalar ijodiyoti markazida malakali ustozlardan rasm chizish sirlarini puxta o'zlashtirmoqda. Qahramonimiz Kamoliddin Behzod, Chingiz Ahmarov, Rahim Ahmedov kabi mashhur musavvirlarga havas qiladi.

Firdavs shu kungacha bir necha tanlovlarda qatnashib, faxrli o'rinlarni egalladi. U rasm chizishdan tashqari she'r va masallar yozishni ham mashq qiladi. Sportning dzyudo turi bilan muntazam shug'ullanadi.

Orzulari bir olam bu bolakayning tirishqoqligi, intiluvchanligiga juda havasimiz keldi. Firdavsga orzulari sari intilib yashashiga tilakdoshmiz.

Muzaffar AHMEDOV



Hayvonlar juda aqlli bo'lishi haqida ko'p bora o'qigansiz, eshitgansiz. Ularda faqat nutq yo'q, so'zlasha olishmaydi, xolos. Lekin insonlar tomonidan berilgan buyruqlarni to'g'ri



## SHIFO ISTAB...

Bu ajib olam

tushunib, unga bo'ysunishadi.

Masalan, sirkda qo'lga o'rgatilgan ayiq, yo'lbars, delfin hamda uy hayvonlari va parrandalarni ko'rgansiz. Ammo jarohat olgan kenguruning shifo istagida dori izlab, dorixonaga kirib kelganiga ishonasizmi?

Yaqinda Avstraliya-

ning Melburn shahrida shunday voqea yuz berdi. Avtomobilga to'qnashib ketib, oyog'i shikastlangan kenguruning dorixonaga hakkalab kirib kelganiga dorishunoslar hang-u mang bo'lib qolishdi. Negaki, ushbu dorixona aeroportning ikkinchi qavatida joylashgan edi-da. Qiziq, kenguru qanday qilib kerakli manzilni topib kelgan ekan-a?!

BONU tayyorladi

## KARAMLI SALAT

Kerakli masalliqalar:

4 dona bodring, kichikroq karam, 1 bog' ko'k piyoz, 200 gramm qaynatilgan mol go'shti, ta'bga ko'ra mayonez, tuz va murch.

Tayyorlanishi:

Kichikroq karamning to'rtidan bir qismi somoncha shaklida

to'g'raladi. Bodring, qaynatilgan mol go'shti ham shunday shaklda to'g'rab, idishga solinadi. Bir bog' ko'k piyozni ham maydalab, hamma mahsulotlar birgalikda aralastiriladi. Mayonez, tuz, murch qo'shilgach, lipokchalarga solib, dasturxonga tortiladi.

Yoqimli ishtaha!

NARGIZA tayyorladi



Pozonda qilgani



8

11-noyabr 2013

Bosh muharrir  
Feruza JALILOVA

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,  
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,  
«KAMOLOL» yoshlar ijtimoiy harakati Markazi  
Kengashi,  
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga  
qarashli bo'limning xalqaro xariya jam'armasi.

Gazeta O'zbekiston Matbuot  
va axborot agentligida  
0208-raqam bilan 2007-yil  
2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:  
Omonulla YUNUSOV,  
Abdug'ani XOLBEKOV,  
Bahodir G'ANIYEV,  
Svetlana INOMOVA,  
Murtazo SULTONOV,  
Zoir ISAJONOV,  
Sa'dullo TURSINOV  
(Bosh muharrir o'rinbosari),  
Feruza ADILOVA  
(mas'ul kotib),  
Zikrilla TESHABOYEV,  
Sobitxon TURG'UNOV

Navbatchi  
muharrir  
Sayyora  
QODIROVA  
Rassom  
Feruz  
MATYOQUBOV  
Dizayner  
Shaxobiddin  
MAXMADIYEV  
Musahhif  
Dilrom  
MUHAMMADJON qizi

Manzilibiz:  
Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Indeks: 100129.  
Obuna indeks: 198.  
e-mail:  
info@tongyulduzi.uz  
www.tongyulduzi.uz

Tel: 244-63-08  
Tel./faks:  
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»  
NMIUda chop etildi.  
Tahririyatga kelgan barcha  
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,  
mualliflarga qaytarilmaydi.  
Haftaning dushanba kuni  
chiqadi. Shakli A-3,  
2 bosma taboq.  
ISSN 2010-6092  
Adadi – 47085  
Buyurtma N: J 8475